



# «[HTTPS://WWW.INSTAGRAM.COM/APAY.UZ/](https://www.instagram.com/apay.uz/)» IJTIMOIY TARMOGʻIDAGI FAOLLIK UCHUN APS BONUSLARI TAQDIM ETILADIGAN TANLOVNI OʻTKAZISH QOIDALARI

## 1. UMUMIY QOIDALAR.

- 1.1. Ushbu Qoidalar «<https://www.instagram.com/apay.uz/>» ijtimoiy tarmogʻida «Faollik uchun APS bonuslari» tanlovini tashkil etish va oʻtkazish tartibini belgilab beradi (ushbu Qoidalar matnida keyingi oʻrinlarda «Tanlov» deb yuritiladi). Tanlov lotereya hisoblanmaydi, tavakkalchilik elementlarini oʻz ichiga olmaydi, foyda yoki boshqa daromad olish maqsadini koʻzlamaydi va mazkur Qoidalarga muvofiq oʻtkaziladi.
- 1.2. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 9-yanvardagi 21-sonli Litsenziyasi asosida toʻlov tashkiloti maqomiga ega, toʻlov tashkilotlari reyestrda roʻyxatdan oʻtgan, «A Pay» elektron pul tizimining operatori «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ Tanlov tashkilotchisi (keyingi oʻrinlarda Tashkilotchi) hisoblanadi. Tashkilotchi Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Qoidalarga amal qiladi. Tanlovni maksimal darajada samarali oʻtkazish maqsadida Tashkilotchi boshqa shaxslarni Tanlovni tashkil etish ishlariga jalb qilishi mumkin.
- 1.3. Tanlov Oʻzbekiston Respublikasi hududida 2022-yil 28-noyabr (Toshkent vaqti bilan) soat 11.00 dan 2022-yil 26-dekabr (Toshkent vaqti bilan) soat 16.00 gacha boʻlgan davrda oʻtkaziladi. Tanlov qoidalari bilan Tashkilotchining <https://a-pay.uz> saytida toʻliq tanishish mumkin.
- 1.4. Tanlovda ishtirok etish Tanlov Ishtirokchilari ushbu Qoidalarni toʻliq qabul qilganliklari va ularga rozilik bildirganliklarini anglatadi. Tanlovda faqat Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.
- 1.5. Tanlov Tashkilotchining Instagram ijtimoiy tarmogʻidagi quyidagi rasmiy sahifasida oʻtkaziladi: <https://www.instagram.com/apay.uz/> (keyingi oʻrinlarda «Hamjamiyat» deb yuritiladi).
- 1.6. Tanlovda ishtirok etish bepul va kafolatlangan Sovrinlarni olish huquqini bermaydi.
- 1.7. Sovrin jamgʻarmasi Tanlov Tashkilotchisi mablagʻlari hisobidan shakllantiriladi.
- 1.8. Tanlov «A-Pay» elektron pul tizimi mashhurligini oshirish maqsadida oʻtkaziladi.

## 2. TANLOV ISHTIROKCHILARI.

- 2.1. Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega boʻlgan, uning hududida yashovchi har qanday 18 yoshga toʻlgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs Tanlovda ishtirok etishga haqli.
- 2.2. Tashkilotchining xodimlari va vakillari Tanlovda ishtirok etishlari mumkin emas.
- 2.3. Qoidalarda koʻrsatilgan talablarga javob bermaydigan shaxslar Tanlovda qatnashish va Tanlov Sovrinlarini olish huquqiga ega emaslar.



- 2.4. Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan maʼlumotlar va maʼlumotlarning toʻgʻriligi uchun Tanlov Ishtirokchisi javobgardir. Tanlov Ishtirokchisi Tanlovda ishtirok etish bilan bogʻliq oʻz huquqlarini uchinchi shaxsga oʻtkazish va/yoki biron-bir tarzda topshirishga haqli emas.
- 2.5. Tanlov ishtirokchilari Instagram ijtimoiy tarmogʻida roʻyxatdan oʻtish va undan foydalanish qoidalari bilan tanish ekanliklarini tasdiqlaydilar.
- 2.6. Qoidalarga oʻzgartirishlar kiritilgan yoki tanlov muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, tegishli maʼlumotlar Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va Hamjamiyatda joylashtiriladi. Tanlov Tashkilotchisi Tanlov qoidalarini ushbu Qoidalarda koʻrsatilmagan qoʻshimcha vositalar (flyerlar, nashrlar va boshqalar) orqali ham Ishtirokchilarga yetkazishi va Tanlovda ishtirok etishga taklif qilishga haqli. Tanlov haqida qisqacha maʼlumotni Hamjamiyatning yangiliklar tasmaida ham topish mumkin.
- 2.7. Tanlovda ishtirok etish fakti shuni anglatadiki, Tanlov Ishtirokchisi Tanlovda qatnashgan yoki gʻalaba qozongan taqdirda Tanlovda ishtirok etish munosabati bilan tayyorlangan materiallar, shu jumladan, shaxsiy maʼlumotlar (toʻliq ismi-sharifi), fotosuratlar, videoyozuvlar va intervyular Tanlov Tashkilotchisi tomonidan ommaviy axborot vositalarida (bosma nashrlar, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda) reklama maqsadlarida eʼlon qilinishiga soʻzsiz roziligini bildiradi va buning uchun qoʻshimcha haq talab qilmaydi.

### **3. TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI**

- 3.1. Tanlovda ishtirok etish uchun Ishtirokchi Instagram.com ijtimoiy tarmogʻida shaxsiy akkauntiga ega boʻlishi kerak.
- 3.2. Tanlov ishtirokchisi boʻlish uchun:
  - 3.2.1. Tashkilotchining [instagram.com](https://www.instagram.com/apay.uz/) saytidagi <https://www.instagram.com/apay.uz/> sahifasiga obuna boʻling;
  - 3.2.2. Tashkilotchining Tanlovga doir nashriga postiga layk bosing;
  - 3.2.3. Tashkilotchining Tanlov posti ostidagi sharhlarda uchta doʻstingizni belgilang (tasodifiy foydalanuvchilar, multi-akkauntlar, brend, doʻkon sahifalari va shunga oʻxshash sahifalardan tashqari).
- 3.3. Tanlov Ishtirokchisi Tanlov muddati davomida [instagram.com](https://www.instagram.com/apay.uz/) ijtimoiy tarmogʻi obunachisi boʻlib qolishi shart.
- 3.4. Tanlov Ishtirokchisi Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchining Tanlov shartlariga muvofiqligini tekshirish uchun Tanlov davomida [instagram.com](https://www.instagram.com/apay.uz/) ijtimoiy tarmogʻidagi oʻz sahifasiga kirish huquqini ochib qoʻyishi kerak.

### **4. TANLOVDA QATNASHISHGA RUXSAT BERMASLIK SHARTLARI**

- 4.1. Shaxsning Tanlov talablariga javob bermasligi va/yoki shaxs tomonidan Qoidalarda belgilangan talablarni bajarmasligi.
- 4.2. Tanlov shartlariga koʻra doʻstlarni belgilamasdan sharh qoldirish Ishtirokchi maqomiga ega boʻlish huquqini bermaydi.



- 4.3. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Tanlovda ishtirok etish uchun [instagram.com](https://www.instagram.com) ijtimoiy tarmogʻida roʻyxatdan oʻtishda dolzarb boʻlmagan (tasdiqlanmagan) va (yoki) noaniq (notoʻgʻri) maʼlumotlarning taqdim etilishi, keyinchalik dolzarb boʻlmagan (tasdiqlanmagan) va (yoki) noaniq (notoʻgʻri) maʼlumotlarning taqdim etilishi yoki umuman taqdim etilmaslik bilan tenglashtiriladi. Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan talab qilingan qoʻshimcha maʼlumotlarni taqdim etishni rad etish toʻgʻrisidagi bayonoti, bu shaxsning Tashkilotchi tomonidan Tanlov ishtirokchilariga qoʻyilgan talablarga muvofiqligini tekshirishga imkon bermaydi.
- 4.4. Tanlov ishtirokchisining yopiq sahifasi.
- 4.5. Bitta aʼzo tomonidan bitta ijtimoiy tarmoqda bir nechta akkauntlardan foydalanish.
- 4.6. Aldash yoʻli bilan Tanlov Ishtirokchilari safiga qoʻshilish (qasddan yolgʻon maʼlumot berish).
- 4.7. Yolgʻon, firibgarlik harakatlarini amalga oshirish, shu jumladan Tanlovda ishtirok etish uchun har qanday avtomatlashtirilgan yoki maxsus tashkil etilgan tizimlardan foydalanish (jumladan, layk almashish va tanlovni avtomatik ravishda repost qilish uchun ilovalar va boshqalar).
- 4.8. Tashkilotchi sabablarini tushuntirmasdan, oʻz adolat tuygʻusiga tayangan holda, Ishtirokchining tanlovda ishtirok etishiga ruxsat berish yoki taqiqlash huquqiga ega.

## 5. GʻOLIBLARNI ANIQLASH

- 5.1. Tanlov gʻoliblari aniqlash maxsus xizmat – randomayzer yordamida amalga oshiriladi.
- 5.2. Tanlov Ishtirokchilari oʻrtasidagi sovrinlar oʻyini har dushanba kuni (05.12.2022, 12.12.2022, 19.12.2022, 26.12.2022) jonli efirda soat 11:00 ga qadar boʻlib oʻtadi.
- 5.3. Har haftada Tanlov Ishtirokchilari orasidan 5 (besh) nafar Tanlov gʻoliblari aniqlanadi.
- 5.4. Tanlovning har bir gʻolibi A-Pay elektron pul tizimining 100.000 APS bonusi miqdorida Sovringa ega boʻladi. APS bonuslari naqd pul, qimmatli qogʻozlar emas va ularni naqd pulga almashtirish, meros qilib qoldirish, pul yoki boshqa sovrinlarga almashtirish mumkin emas.
- 5.5. Gʻoliblar aniqlangach, natijalar bir kun ichida alohida postda eʼlon qilinadi. Tanlov Ishtirokchilari Tashkilotchi tomonidan eʼlon qilingan/yuborilgan xabarlarini mustaqil ravishda kuzatib boradilar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Ishtirokchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi Hamjamiyatlari va shaxsiy akkauntlarida Tanlovning borishi, uning natijalari toʻgʻrisida bildirishnomalar mavjudligini, oʻzgarishlar, Sovrinlarni olish va ulardan foydalanish shartlari tekshirib boradi. Tashkilotchi tomonidan yuborilgan/joylashtirilgan/eʼlon qilingan xabarlar bilan oʻz vaqtida tanishib borish masʼuliyati Ishtirokchi zimmasiga yuklanadi.
- 5.6. Sovrindan foydalanish uchun Gʻolib Tanlovda gʻalaba haqidagi xabar Tashkilotchi tomonidan eʼlon qilingan/yuborilgan kundan boshlab 20 (yigirma) kalendar kun ichida A-pay elektron pul tizimida roʻyxatdan oʻtishi va oʻzini identifikatsiya qilishi kerak. A-pay elektron pul tizimida roʻyxatdan oʻtish va identifikatsiya qilish Tashkilotchining Sovrindan foydalanish imkoniyati kafolati hisoblanadi. Gʻolibga Sovrindan foydalanish shartlari toʻgʻrisida barcha kerakli maʼlumotlarni yuborish Sovrin Gʻolibga topshirilganligini anglatadi.
- 5.7. Tanlov Tashkilotchisi Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan notoʻgʻri maʼlumotlar uchun javobgar emas. Tanlov Tashkilotchisi Gʻolib bilan ijtimoiy tarmoq orqali bogʻlana olmagan va Gʻolib 20



(yigirma) kalendar kun ichida mustaqil ravishda Tashkilotchi bilan bogʻlanmagan taqdirda, Sovrin talab qilinmagan deb topiladi va Tashkilotchi uni oʻz ixtiyoriga koʻra tasarruf etadi. Tanlov Gʻolibi Gʻolib deb eʼlon qilingan kundan eʼtiboran 20 (yigirma) kalendar kun ichida «A-Pay» elektron pul tizimida roʻyxatdan oʻtmasa, Gʻolibning sovrini bekor qilinadi.

5.8. Agar Gʻolib sovrindan bosh tortsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali Tashkilotchiga oʻz toʻliq ismi va sovrinni rad etish sabablarini koʻrsatgan holda xabar yozishi kerak. Bunday holda, Gʻolibning sovrini bekor qilinadi.

5.9. Sovrinni almashtirish, oʻzgartirish yoki uning pul ekvivalentini olish mumkin emas.

## 6. SHAXSIY MAʼLUMOTGA ISHLOV BERISH

6.1. Tanlovda ishtirok etib turib, Ishtirokchi Tashkilotchiga avtomatlashtirilgan, shuningdek, avtomatizatsiya vositalaridan foydalanmagan holda olingan shaxsiy maʼlumotlariga ishlov berilishiga, jumladan, toʻplash, tizimlashtirish, yigʻish, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, oʻzgartirish), foydalanish, egasizlantirish, bloklash, yoʻq qilish; shuningdek, Tanlovda ishtirok etishi munosabati bilan tayyorlangan surati, videotasviri va intervyusiga qoʻshimcha haq toʻlamagan holda shaxsiy maʼlumotlarini (famiyasi, ismi, sharifi, surati, yashayotgan shahri) Tashkilotchining saytida va ijtimoiy tarmoqlarida ishlatish va nashr etishga oʻzining soʻzsiz roziligini bildiradi. Shaxsiy maʼlumotlarga ishlov berish va topshirishdan maqsad: tanlovda ishtirok etishdan iborat. Qayd etilgan kelishuv Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq, Ishtirokchining qoʻshimcha roziligini olmagan va unga buning uchun qandaydir haq toʻlamagan holda belgilanadigan koʻrsatilgan maʼlumotdan iborat tegishli axborot yoki hujjatlarni saqlash muddati tugaguniga qadar amal qiladi. Kelishuv Ishtirokchi tomonidan tashkilotchining manziliga yozma daʼvo joʻnatish yoʻli bilan chaqirib olinishi mumkin.

6.2. Shaxsiy maʼlumotlarga ishlov berishga rozilik tanlov Ishtirokchisi tomonidan muddatsiz beriladi. Ishtirokchilarning shaxsiy maʼlumotlaridan Tashkilotchi yoki Tashkilotchi tanlov oʻtkazilishi munosabati bilan faqat tanlovga aloqador maqsadlar uchun jalb qilgan uchinchi shaxslar foydalanadi.

6.3. Ijtimoiy tarmoqlar aloqaning va kishilarni izlashning universal vositasi hisoblanganligi sababli ijtimoiy tarmoq profili egasi nashr etadigan ayrim maʼlumotlarni yashirish uchun ochiq hisoblanib, bu bilan Ishtirokchi ijtimoiy tarmoqda uning ishlash qoidalarga koʻra, roʻyxatdan oʻtishga rozi boʻladi. Instagram.com ijtimoiy tarmogʻida profilga (akkaunt) ega boʻlgan Ishtirokchi uning tomonidan nashr etilayotgan maʼlumotlarga nisbatan oʻz profilining maxfiylik sozlamalarini boshqarish imkoniga ega boʻladi (ochiq maʼlumotlardan tashqari).

6.4. Ishtirokchi maʼlumotlar bazasiga ismini qoʻshishga ruxsat etish bilan, Tashkilotchilarga oʻzining shaxsiy maʼlumotlarini berib, uning tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlar: e-mail, ismi, aloqaga kirishish uchun telefon raqamiga ishlov berilishiga oʻzining roziligini bildiradi.

## 7. QOʻSHIMCHA SHARTLAR

7.1. Tashkilotchining Ishtirokchilar oldidagi javobgarligi Ishtirokchi olish huquqiga ega boʻlgan mukofot bilan chegaralanadi.



- 7.2. Tashkilotchi Tanlov shartlariga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish huquqini oʻzida saqlab qoladi. Tashkilotchi barcha oʻzgartirishlar haqida sayt va/yoki ijtimoiy tarmoqlarda xabarni eʼlon qilish orqali alohida maʼlum qiladi.
- 7.3. Tashkilotchi tomonidan tanlov matnida yozilgan qoidalar tanlovda ishtirok etishning yagona rasmiy Qoidasi hisoblanadi. Ushbu qoidalar va/yoki mazkur qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalarni har xil talqin etilishiga yoʻl qoʻyiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda talqin va/yoki izohlash toʻgʻrisidagi yakuniy qarorni bevosita tanlov Tashkilotchisining oʻzi qabul qiladi.
- 7.4. Ishtirokchining tajovuzkor xatti-harakati (beadab, qoʻpol yoki haqoratomuz soʻzlar) kuzatilsa, Tashkilotchi foydalanuvchiga ijtimoiy tarmoqlarda muloqotga kirishini nomaʼlum muddatga uni oldindan ogohlantirmagan holda taqiqlab qoʻyishga (qora roʻyxatga kiritib qoʻyish, bloklash) haqlidir.
- 7.5. Tashkilotchi oʻzining shaxsiy xohishiga koʻra Ishtirokchilarga sabablarini tushuntirmagan va ular bilan yozishmalarga kirishmagan holda tanlov Ishtirokchilarining har qanday harakatlarini haqiqiy emas deb eʼtirof etishi, shuningdek, Tashkilotchida mazkur shaxs maʼlumotlarni soxtalashtirayotgani yoki avtomatlashtirilgan harakatlar bilan shugʻullanishi haqida asosli shubha tugʻilgan taqdirda, shu bilan birga, Ishtirokchi ushbu qoidalar va Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qoidalarini buzib harakat qilganida uning kelgusida tanlovda qatnashishini taqiqlash huquqiga ega.
- 7.6. Qoidalarda bayon etilmagan vaziyatlarda Tashkilotchi oʻz xohishiga koʻra harakat qilishga haqlidir.

